BOG‘CHA YOSHIDAGI BOLALARNING O‘YIN FAOLIYATI ORQALI IJTIMOIYLASHUVI

Baratova Dilnora Olimjonovna

Qashqadaryo viloyati Qarshi shaxar

1-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Maqolada bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yin faoliyati orqali ijtimoiylashuvi, bolalarning atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevoisita amaliy munosabatda bo‘lishi yoritib berilgan.

Tayanch tushunchalar: O’yin, ijtimoiylashuv, ko’nikma, ijodkorlik, his-tuyg’u, tarbiya, ta’lim, tasavvur, odat, nutq.

Абстрактный: В статье описывается социализация детей детсадовского возраста через игровую деятельность, непосредственное практическое взаимодействие с этими предметами в процессе познания окружающего их предметного мира.

Основные понятия: Игра, социализация, мастерство, творчество, эмоция, воспитание, образование, воображение, привычка, речь.

Abstract: The article describes the socialization of kindergarten children through play activities, direct practical interaction with these objects in the process of learning the objective world around them.

Basic concepts: Game, socialization, skill, creativity, emotion, upbringing, education, imagination, habit, speech.

Bog‘cha yoshidagi bolalarni eng asosiy va etakchi faoliyatlaridan biri o‘yindir. Yetakchi faoliyat deb bolaning ayni shu yoshida tez – tez ko‘zga tashlanib turadigan xatti – harakatiga aytamiz. Yetakchi faoliyat shunday faoliyatki, bu faoliyat tufayli bolaning psixik jihatdan o‘sishida jiddiy o‘zgarishlar yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, mana shunday asosiy faoliyat jarayonida bolaning barcha psixik protsesslari anchagina o‘sadi. O‘yin bola hayotida mana shunday asosiy faoliyatlardan biridir. O‘yin shu qadar universial, shu qadar ko‘p qirrali va qudratli faoliyatdirki, barcha yoshdagi bolalarni o‘yindan boshqa kamolga etkazishni tasavvur etish qiyin.

Bolalar o‘yin faoliyatlarining mohiyati rus psixologlaridan L.S. Vigotskiy, S.K.Rubinshteyn, A.N.Leontev, E.A.Arkin, D.B. Elkonin va boshqalarning asarlarida ilmiy asosda yoritib berilgan. Rus psixologlari o‘z asarlarida burjua psixologlarining o‘yin nazariyalarini qattiq tanqid ostiga olishlari bilan birga bolalar o‘yin faoliyatlarining mohiyatini materialistik asosda ilmiy nuqtai nazardan tushuntirib berganlar. Bu jihatdan, xususan, S.K.Rubinshteyn, A.N.Leontev, E.A.Arkinlarning asoslari diqqatga sazovordir[2].

Bolaning psixik taraqqiyotini o‘yinsiz tasavvur qilish qiyin. Ma’lumki bolaning yoshi ulg‘ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari uning atrofdagi narsa va hodisalar dunyosi ham kengayib boradi. Bolaning bog‘cha yoshidagi davrida, uning faoliyat doirasiga atrofidagi kuchi yetadigan, qo‘lidan keladigan narsalardan tashqari, kattalarning faoliyatlariga doir, yani ularning hali mutlaqo aqllari yetmaydigan, jismoniy jihatdan kuchlari etmaydigan

narsalar ham kiradi. Chunki ular turmush tajribalarining ozligi va binobarin, haddan tashqari qiziquvchanliklari tufayli atrofdagi hamma narsa va hodisalarni bilishga intilaveradilar[3].

Bog‘cha yoshidagi bolalar uchun mavxum nazariy faoliyatning, ya’ni nazariy yo‘l bilan bilish faoliyatining bo‘linishi mumkin emas. Bu yoshdagi bolalarning atrofdagi narsalarni bilish faoliyatlari faqat bevosita harakat shaklida bo‘ladi. Bog‘cha bolalarining haddan tashqari faol (betinim, harakatchan) ekanliklarining sababi ham shundadir.

Bog‘cha yoshdagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevoisita amaliy munosabatda bo‘lishga intiladi. Bu o‘rinda shu narsa e’tiborliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o‘zining kuchi, aqli etadigan narsalar bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo‘lgan, o‘zini kuchi ham, aqli ham etmaydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo‘lishga, ya’ni bilib olishga intilaveradi. Buning natijasida bolaning xaddan tashqari tez ortib borayotgan ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o‘rtasida keskin qarama – qarshilik yuz beradi. Masalan bola avtomashinani, tramvayni o‘zi xaydagisi, rostakam otga minib yurgisi, uchuvchu bo‘lib samolyotda uchkisi, rostakam militsioner bo‘lgisi keladi. Biroq, bola o‘zidagi bunday extiyojlarni birortasini ham xaqiqiy yo‘l bilan qondira olmaydi. Chunki bu yoshdagi bolada bunday kasblarga mansub bo‘lgan murakkab ko‘nikma va malaka yo‘q, bo‘lishi ham mumkin emas.



Rasmda Dilnora Olimjonovnaning bolajonlar bilan olib borgan o’yin faoliyati

Bu o‘rinda tabiiy bir savol tug‘iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turlicha extiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o‘rtasida qarama – qarshilik qanday yo‘l bilan xal qilinadi? Bu qarama – qarshilik faqat birgina faoliyat orqali, ya’ni bolaning o‘yin faoliyati

orqaligina, xal qilinishi mumkin. Chunki birinchidan, bolalarning o‘yin faoliyati qandaydir moddiy maxsulot ishlab chiqarishga qaratilgan emas. Bolalarni o‘yinga undovchi sabab (motiv) ham o‘yindan kelib chiqadigan natijaga emas, (o‘yindan ko‘pincha xech qanday natija kelib ham chiqmaydi), balki shu o‘yin protsessidagi turli xarakterlarga bog‘liqdir. Ikkinchidan esa bolalar o‘yin jarayonida o‘z ixtiyorlaridagi narsalarni, ularni qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo‘lgan narsalarga aylantirib (cho‘pni ot qilib, stulchani avtomashina qilib) kuchlari etgancha erkin faoliyatda bo‘laveradilar. Shunday qilib, bolalar atroflaridagi kattalar uchungina mansub bo‘lgan, xali o‘zlarining kuchlari ham, aqllari ham yetmaydigan juda ko‘p narsalarni faqat o‘yin



faoliyati orqali o‘zlashtiradilar. O‘yin orqali ular voqelikdagi narsa va xodisalarni biladilar[1].

O‘yin bolalar xayotida shunday ko‘p qirrali faoliyatdirki, unda bolalarga mansub bo‘lgan mehnat ham, narsalar haqida tafakkur qilish ham, san’at ham, xayol, dam olish va xushchaqchaqlik manbalari ham mujassamlangandir, ya’ni mana shu protseslarni barchasi o‘yin faoliyatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘yin bolalar talab qilayotgan darajadagi to‘la qonli xayotni ta’min eta oladi. O‘yinning bolalarni maftun etuvchi kuchi ham shundadir.

O‘yin faqat tashqi muxitdagi narsa va xodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o‘yinlarda bolalarning barcha psixik protseslari bilan birlikda individual (shaxsiy) xislatlari ham shakllanadi. Mana shu nuqtai nazardan o‘yin bog‘chadagi ta’lim – tarbiya ishlari orasida eng asosiy, markaziy o‘rinda turadi. Demak,

bog‘chadagi ta’lim – tarbiya ishlarini muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bolalarning o‘yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila biliishga bog‘liqdir[2].

Bog‘cha yoshdagi bolalar o‘yinlari quyidagicha psixologik xususiyatlarga ega. Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘yinlarining birinchi harakteri xususiyati, o‘yin tematikasini xaddan tashqari sermazmunligi boyligidir.

Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘yin faoliyatlarining ikkinchi xarakterli xususiyati bolalar o‘yinlarida milliy tuyg‘ularning aks etishidir.

Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘yinlarining uchinchi xususiyati – o‘yin jarayonida vatanparvarlik tuyg‘ularining namoyon bo‘lishidadir. O‘rta va katta bog‘cha yoshidagi bolalar Vatanimizning poytaxti Toshkentni juda yaxshi biladilar va uni sevadilar, shu tufayli o‘yinchoqlardan zo‘r maroq va g‘urur bilan yasaydilar. Bundan tashqari, turli millat bolalari tusida yasalgan qo‘g‘irchoqlar yasashga intiladilar[1].

Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘yinining keyingi xususiyati barcha jarayonlarining diqqati, sezgi va idroki, xotirasi, tafakkur va nutqi, xayoli, xis – tuyg‘u, irodasi, xarakteri va qobilyatining namoyon bo‘lishidir.

Shunday qilib, bolaning o‘yin faoliyati uni har timonlama shakllantiruvchi, barcha psixik jarayonlari va psixologik xususiyatlarini rivojlantiruvchi yetakchi faoliyat bo‘lib xisoblanadi.

Bog‘cha bolalari biron o‘yin, ta’lim yoki mehnat faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lar ekan, ular asosida harakatga soluvchi mayllar yotadi. Kichik bog‘cha yoshidagi bolalarning xatti – harakatlari amalga oshirilayotgan sharoitga bog‘liq bo‘ladi. Ular xatti – harakat motivlarini anglab ham yetmaydilar. Shuning uchun ko‘pincha o‘zlaricha mutlaqo xisobot bermay, ma’lum bir vaziyatda u yoki bu xatti – harakatni amalga oshira boshlaydilar[2].

Bu yosh davrida bolalarning xatti – harakatlari va xulq – atvorlarining motivlari ham o‘zgarib, rivojlanib boradi. Katta yoshli bog‘cha bolalarining xatti – harakat motivlari to‘la anglangan motivlardan iborat bo‘ladi. Masalan; katta yoshdagi bog‘cha bolalarning xatti – harakatlari, xulq – atvorlari asosida yotgan motivlar har tomonlama kattta odamlarga o‘xshashdan iborat. Ular ana shunday kuchli mayl asosida taqlidiy o‘yinlarni, ta’limiy, ya’ni yetakchi mashg‘ulotlarni va mehnat mashg‘ulotlarini tashkil qilib o‘tkazadilar. Bolalarning asosiy maqsadlari katta odamlar bilan o‘zaro munosabatni mustahkamlashdir. Bolalar katta kishilar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatishga kirishar ekanlar, ular katta kishilarning buyurgan topshiriqlarini bajarishga, o‘rnatgan tartib qoidalariga so‘zsiz bo‘ysunishga xarakat qiladilar[2].

Xulosa qilib aytganda bog‘cha yoshidagi davrida bolalar o’yin orqali o‘z xatti-harakatlarini anglaganlari sayin axloqiy qoidalarga rioya qilish motivlarining ya’ni ijtimoiy axloqiy qoidalarga rioya qilish motivlarining o‘rni kuchayib boradi. Bolalar endi o‘zlarining egoistik manfaatlari yuzasidan emas, balki ijtimoiy manfat nuqtai nazaridan harakat qilishga o‘rgana boshlaydilar. Masalan: bolalar o‘zlari yoqtirgan o‘yinchoqlarini boshqa bolalarga beradigan va xattoki o‘zlarini uyidan olib kelgan shirinliklarini bo‘lib beradigan bo‘ladilar. Shu tariqa bolalarda o’yin orqali ijtimoiy motivlar rivojlana boshlaydi. Katta yoshdagi bog‘cha bolalari har doim kichik yoshdagi bolalarga yordam berishga, ya’ni ijtimoiy motivlar asosida harakat qilishga intiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muslimov N.A, Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M, To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. -T. “Sano standart” nashriyoti, 2015.-78 b.
2. Ishmuhamedov R. Ta’limda innovatsiya. – T.: ―Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2010.-83 b.
3. www.pedagog. uz